



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

O'tayev Muzaffar Shaxobiddin o'g'li<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti magistranti

## SAMARQANDDA JADID MAKTABLARINING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI

**Annotatsiya:** XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining turli burchaklarida ochilayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan «usuli savtiya tadrijiya» («usuli jadid») maktablari uchun mablag'ishlab, «Jamiyati xayriya» yoki «vaqflar» orqali shu maktab va maorif maskanlari uchun darsliklar, o'quv qullanmalari yaratish, o'quv jihozlari bilan ta'minlash, iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan mamlakatlarga o'qishga yuborish kabi qator islohatlar amalga oshirildi.

«Usuli jadid» harakati vaqt o'tishi bilan o'z mevalarini bera boshlaydi. 1904- yilga kelib Rossiyaning o'zida besh mingga yaqin «usuli jadid» maktablari ochiladi. So'ngra bu harakat Turkistonga ham yoyila boshladi. Ammo Turkiston general-gubernatori Kaufman yangi maorif tizimini rus hukumati uchun tahlikali hisoblab, ularning o'rniga rus-tuzem maktablari ochdiradi<sup>1</sup>. Ziyolilar hamda aholining asosiy qismi «usuli jadid» maktablari ochilishi tarafdori bo'lishgan. Shu sababli ham I. G'aspirali o'z takliflarini qog'ozga tushirib, rus hukumatiga, yana bir nusxasini esa general-gubernator N. O. Rozenbaxga jo'natadi. Afsuski, natija kutilgandek bo'lib chiqmaydi. I. G'aspirali rad javob oladi. Shundan so'ng, samimiy munosabatda bo'lgan Buxoro amiri Abdulahadga murojaat etib, yangi usuldagi maktablar ochishga ruxsat so'raydi. Amir esa taraqqiyparvar ziyoli I. G'aspiralini Buxoroga taklif qiladi. Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilgan I. G'aspirali 1893-yilning may oyi oxirida Buxoroga tashrif buyuradi. Safari davomida Samarqand va Toshkentda ham bo'lib, bir qator eski usuldagi maktablarni borib ko'radi. Mutasaddi rahbarlar, shu jumladan, N. Ostroumov bilan Turkistonda maorif tizimi xususida

<sup>1</sup> Рустам Шарипов. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. Тошкент «УЎИТУВЧИ» 2002, 31бет.

suhbatlashadi. Amirning Shahrisabzdagi yozgi qarorgohida mehmon samimiy qarshi olinadi. Uzundan-uzun suhbatlar chog'ida o'z fikrlariga xayrixohlik topadi<sup>2</sup>. Ammo shunday bo'sa ham maqsadiga erisha olmaydi. Chunki, bu vaqtga kelib, Buxoro amiri imperiya hukumatidan ruxsat olmay turib, biror masalani o'zi mustaqil hal etish huquqidan mahrum etilgan edi.

“Tarjimon” gazetasida Samarqand safari tafsilotlari haqida “Mashina maktabi” maqolasi chop etildi. Maqola muallifi: “1893-yilning iyul oyida Buxorodan Turkistonga sayohat bilan Samarqandga keldim. O'sha yili Samarqandda yashagan Abdulg'ani Boy Husainov (qozonlik boy savdogar) mening hol-ahvol so'rash uchun mehmonxonaga tashrif buyurganimni eshitib qoldi. Suhbatimiz oxirida u meni ertaga ziyofatga taklif qildi. Men bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qildim, chunki uning ziyofatlarida menga kerak bo'lgan Samarqandning obro'li, hurmatli, eng muhimi, ziyoli odamlari yig'ilgan edi. Imkoniyatim bo'lsa, Samarqandda savtiya maktabini tashkil etish usuli va uning foydalari haqida xalqqa gapirib berar edim”<sup>3</sup>.

Qabulning asosiy mavzusi Movarounnahr maktablarining ahvoli va kamchiliklari haqida bo'ladi. Abdug'aniboy Ismoilbek Gaspiralidan Samarqandda yangi metodika asosida o'qitiladigan maktab ochishni so'radi. Samarqand ziyolilarining qo'llab-quvvatlovi natijasida Ismoil Gaspirali tatar millioneri Abdug'ani Husainov hamda uning birodarlari Ahmad bilan Mahmud yordamida 20-30 bolani o'qitishga mo'ljallangan maktab tashkil etadi. Samarqandlik o'qituvchilar yangi usulda o'qitishni bilmagani uchun u maktabga o'zi bilan birga kelgan va o'qituvchilarga yangicha usulda dars o'tish uchun bokulik rus tili o'qituvchisi Sulton Majid G'anizodani Samarqandga tashlab ketadi. Majid G'anizodaning maktabdagi qirq kunlik o'qituvchilik faoliyati davomida bolalarning savodxonligi va darslarini imtihonlar orqali o'zlashtirgani ota-onalarga ham, maktab tarafdorlariga ham ko'rinadi. Yangicha usulda ta'lim beradigan bu maktabni samarqandliklar “mashina maktabi” deb atay boshlaydilar.

Ismoilbekning Turkistonga ikkinchi safari 1908-yilga to'g'ri keladi. Safar tafsilotlari «Buxoroda na ko'rdim?» sarlavhasi ostida «Tarjimon»ning o'sha yil sonlarida (47,50,57-59,64,78) bosilgan. U Samarqandga o'tadi. «Usuli jadid» maktablari bilan tanishadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy bilan uzoq suhbatlar quradi. Gap tarix va kelajak, muqaddas obidalar va ularning taqdiri, rus istilochilik siyosati va o'zlikni saqlab qolish haqida edi<sup>4</sup>. Subhasiz Ismoil Gaspiralining bu tashrifi Samarqand jadidlarining maktabdorlik faoliyatiga, uning samaradorligini oshirishga muhim ahamiyat kasb etmay qolmagan.

Taraqqiyparvarlik harakatining Turkistondagi tarkibiy qismi bo'lgan Samarqand jadidchiligi jamiyatga yangilik va o'zgarishlar qilishda ma'lum ma'noda o'z maqsadlariga erishgan. Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat Samarqandda, balki butun Turkistonda jadidchilik harakatining yetuk namoyondasi bo'lgan. U shunday yozadi: “Boshqa millatning yosh bolalari maktabda ekan, bizniki hammollikda va gadoylikda boshqa millat ulamosig'a tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tob'edur. Muning oxiri xarobdur. Bukun islohi maktab, madrasa, ya'ni millatga kushoyish qilinmasa, rabi asr so'ng diyonat barbod bo'lur va oning

<sup>2</sup> Мехмет Сарой. Турк дунёсида маориф ислохоти ва Гаспирали Исмоил. Анкара, 1987,49-бет.

<sup>3</sup> Биография Абдулгани Хусайнова и история фирмы Хусайнова. Оренбург, 1913. 126 с.

<sup>4</sup> <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-ismoilbek-gasprinskiy-1851-1914/>

javobi, ma'suliyati bugung'ilarga qolur. Bu ma'suliyatdan qutulmoq uchun millatni diniy va dunyoviy ilm va fanlar o'qumoq uchun targ'ib qilmoq kerak"<sup>5</sup>.

Samarqanddagi ana shunday ma'rifatparvarlardan yana biri Abduqodir Shakuriy bo'lib, u o'z mablag'lari hisobidan yangi usul maktabi faoliyatini yo'lga qo'ygan. Abduqodir Shakuriy 1875-yilda Samarqandning Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ilgan. Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlagan keyin Samarqand shahridagi madrasada tahsilni davom ettiradi. U rus gimnaziyasidagi ichki tartib va o'qitish usullarini o'rganadi. Shakuriy Qo'qonga borib, yangi maktabdagi o'qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytgach, Rajabaminda 1901-yilning kuzida birinchi yangi usuldagi maktabni faoliyatini yo'lga qo'yadi. Shakuriyning maktabi tezda mashhur bo'ladi. O'sha vaqtda bu yangi maktablar uchun darsliklar ham zarur edi va Shakuriy o'z maktabi uchun darsliklar yozadi va o'z mablag'lari hisobiga nashr qildiradi. Masalan, u «Rahnamoyi savod» (Savod chiqarish qo'llanmasi), «Jomi' ul-hikoyat» (1907), «Zubdat ul-ash'or» (1907) kabi o'quv qo'llanmalarini yaratgan. Behbudiy bilan birgalikda maktablar uchun dastur tuzgan. Shakuriy nafaqat Samarqandda, balki Turkistonda birinchilardan bo'lib qizlar uchun yangi usuldagi maktabni tashkil qilgan va unda uning turmush o'rtog'i o'qituvchilik qilgan<sup>6</sup>. Keyinchalik o'g'il va qizlar guruhini birlashtirib, o'qita boshlagan.

Shakuriy maktabida jug'rofiya fanidan Behbudiy ham bir necha marta borib dars bergan. Bu maktabda o'quvchilarning aksariyati shahardan qatnagan. Maktabning moddiy ahvoli ham talab darajasida bo'lmagan. Buni hisobga olgan Behbudiy bu maktabni shaharga, o'z hovlisiga ko'chirish uchun general-gubernatorga murojaat qilgan. Ariza ko'rib chiqilib, maktabni ko'chirishga ruxsat beriladi<sup>7</sup>.

Abdulqodir Shakuriy 1915-yil 9-maydan 11-maygacha o'z maktabida imtihon bo'lishini ma'lum qiladi va xalq bilim yurti inspektorini ushbu imtihonga taklif qiladi. Behbudiy maktabning faoliyatini ko'rsatish uchun hukumat tomonidan N.S.Likoshin bilan V.L.Vyatkin(1869-1932)ni, shaharning obro'li ulamolarini, savdogarlarini, boylar va do'kondorlarni taklif qiladi. Ikki kun ertalab 10 dan, kech soat 6 gacha o'quvchilar imtihon qilinadi. Natijada imtihonda qatnashganlarning ko'pchiligi bolalar bilimidan hayratga tushadilar. Hatto, ba'zilar bizning farzandlarimiz ham ilm yo'llarini shunchalik tez egallar ekan-ku, deb yig'lab ham yuboradilar<sup>8</sup>. Bu holat aholi o'rtasida jadid maktablarining faoliyatiga mahalliy aholining munosabati o'rganishiga va ommalashishiga muhim turtki bo'ladi.

Samarqandda yana bir xalqparvar jadid maktabdori shoir, tarjimon Saidahmad Hasanxo'ja o'g'li Siddiqiy Ajziy bo'lib, u 1864-yil Samarqand viloyatining Jomboy tumani Halvoyi qishlog'ida hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Samarqand va Buxoro madrasalarida o'qigan. Sharq klassik adabiyotini, arab, fors, ozarbayjon va keyinchalik rus tilini mukammal o'rgangan. 1901-yil haj safariga borib ko'plab sharq davlatlarida bo'lib, islom dunyosidagi yangiliklarni ko'radi. Bir necha muddat Jiddada Rossiya elchixonasida tarjimonlik qiladi. Moskva, Peterburg shaharlarini aylanib, yangiliklarni kuzatadi. Samarqandga qaytgach, 1903-yil Halvoyi qishlog'ida yangi maktabni tashkil

<sup>5</sup> Ахорова З. Жаҳид педагогика асослари. (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2004. – Б. 12. <http://uz.denometr.com>.

<sup>6</sup> //ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/abduqodir-shakuriy/. Абдуқодир Шақурий (1875-1943).

<sup>7</sup> Muhiddinov S. I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati maorifi holati va muammolari.: Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss... – Samarqand, 2019. – 132 b.

<sup>8</sup> Muhiddinov S. I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati maorifi holati va muammolari.: Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss... – Samarqand, 2019. – 133 b.

qiladi<sup>9</sup>. Maktabda tabiiy fanlar, arab hamda rus tillaridan dars beradi. L.Tolstoy hikoyalari, Krilov masallarini, Gogolning «Shinel» povestini mahalliy tillarga tarjima qilgan (1908-1910)<sup>10</sup>. Jadid maktablar uchun ko'plab darsliklar yozadi.

Samarqandlik yana bir jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Hoji Muin 1883-yil 19-martida Samarqand shahrining Ruhobod mahallasida dunyoga kelgan. Eski maktabda savod chiqargach, ma'rifatparvar mudarris Saidahmad Vasliydan madrasada ta'lim olgan. Rus tilini, Yevropa madaniyatini mustaqil o'zlashtirgan. 1901-yildan boshlab o'qituvchilik qilgan. 1903-yili Ruxobod mahallasida «usuli jadid» maktabi ochib, 1908-yili «Rahnomai savod» nomli alifbo nashr ettirgan. 1913-yilda Behbudiyning «Samarqand» gazetasida va «Oyina» jurnalida ishlaydi. 1914-yili o'z uyida «Tarbiyat» nomli xususiy «usuli jadid» maktabini ochgan. 1915-yili Hoji Muin boshlang'ich maktablarning 3-sinfi uchun «Yangi adabiyot» majmuasini yaratadi. Unda zamondosh Turkiston shoirlarining she'rlari jamlanadi.

Bu davrda Samarqanddagi jadid maktablar faoliyatida Saidrizo Alizoda ham alohida mavqega ega edi. U 1887-yil 15-fevralda Samarqandda tug'ilgan. Saidrizo Alizoda Samarqandda madrasada 6 yil ta'lim olgan<sup>11</sup>. Saidrizo Alizoda o'zbek, tojik, rus tillarida matbuotga xat, maqolalar yozgan, «Samarqand» gazetasi, «Oyina» jurnalida Behbudiy bilan faoliyat ko'rsatgan. Samarqandda kambag'al oila farzandlari uchun maktab ochib, o'qituvchilik qilgan. Maktablar uchun «Sarfi arab», «Turkiy alifbo», «Tarix», «Jug'rofiya», «Riyoziyot», «Xandasa», «Tabiat», «Din vojiblari», «Nizomnoma», «Badan tarbiyasi», «Ilmi fazo» kabi 11 ta darslik yozgan<sup>12</sup>. Mahalliy maktablar uchun «Birinchi yil» nomli alifbo yozadi va uni bepul tarqatadi. Hattoki, Samarqandda yashaydigan rus millati vakillariga mahalliy tillarni o'rganish uchun maxsus kechki kurslar tashkil qilgan.

Yangi usul maktablari viloyat aholisining barcha millatlari orasida ochilgan edi. Viloyat uyezdlarida ham yangi usul maktablarining faoliyati ommalashadi. Ayniqsa, tatar millatiga mansub aholining bu sohadagi faoliyati tahsinga sazovor. Masalan, 1908-yil 22-avgustda X.A.Jafarov, X.A.Hasanov, Mirzo Ibrohim Bagirovich, Mirzo Xusen Ibrohimovlar Samarqand shahrining eski qismida kambag'al, o'qishga imkoniyati yo'q bolalar uchun yangi usul maktabini ochganlar. 1909-yil noyabr oyida mahalliy o'qituvchi Muhammad Bodi Sharofiddinov Ruhobod mahallasida «Ruhobod» nomli yangi usul musulmon maktabini, 1911-yil 9-yanvar kuni Hoji Mirzo Bahrom Mirzo Murodovlar, 1914-yil 1-aprelda Samarqand tatar jamiyati mablag'lari hisobidan Shokir Shirinov va Mustaf Ganishev shaharda o'g'il va qiz bolalar uchun yangi usul maktabini ochganlar (U tatar va rus grammatikasini o'rgatuvchi Toshkentdagi tatar maktabi andozasida ochilgan)<sup>13</sup>.

Nazoratchi organlar yangi usul maktablari va o'quvchilar soni qancha ekanligiga, maktablardagi yangiliklar nimada ekanligiga, dars jarayoni qaysi kitoblar asosida o'tilayotganligiga, maktablarda hukumatga qarshi maqola va kitoblar o'qitiladimi, o'qituvchilar tarkibiga va ulardagi o'quv jarayoniga qiziqishgan. Maktablarni mahalliy ma'muriyatdan borib shaxsan ko'rishni talab qilishgan. Ma'lumotlarda maktabning asosiy vazifasi boshlang'ich ta'limni osonlashtirilgan holda berish ekani aytilgan. Hatto mahalliy

<sup>9</sup> [http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz. Ажзий \(1864-1927\).](http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz. Ажзий (1864-1927).)

<sup>10</sup> <http://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/siddiqiy-ajziy.>

<sup>11</sup> [http://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/saidrizo-alizoda/.](http://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/saidrizo-alizoda/) Саидризо Ализода (1887-1945).

<sup>12</sup> <http://tarix.uz/ru/buyuk-shaxslar/uzbek-ziyolilari/saidrizo-alizoda.>

<sup>13</sup> Muhiddinov S. I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati maorifi holati va muammolari.: Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss... – Samarqand, 2019. – 137 b.



rus amaldorlari ham o'z hisobotlarida Abdushukurov va Jo'raboyev maktabiga imtihon olish paytida viloyat harbiy gubernatori va viloyat o'quv ishlari inspektori bir necha marta borganini, bu maktablarda mahalliy maktablar, va hatto, rus-tuzem maktablariga nisbatan ham o'quvchilarning bilim olishi va tarbiyasi yaxshiligini ta'kidlashgan<sup>14</sup>. Mana shu holat yangi usul maktabdollarining jamoatchilik o'rtasida obro'sini oshirgan. Albatta, hukumat jadid maktablari faoliyatini cheklashni istasa-da, buni to'liqligicha amalga oshira olmagan. Buni hisobga olib imperiya ma'murlari ushbu maktablarda rus tilini o'qitishni asta-sekinlik bilan majbur qilish kerakligini ta'kidlaydilar. Shundagina bu maktab bitiruvchilari hukumatga xayrixoh bo'lishlari mumkin deb hisoblaganlar.

Samarqanddagi ilk yangi usul maktablarini Abduqodir Shakuriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Siddiqiy Ajziy va boshqalarning ma'rifatparlik harakati va mashaqqatli mehnati samarasi sifatida yuzaga keldi. Bu maktablar zamon talablari asosida vujudga keltirildi. Yangi usul maktablari ham milliy ham zamonaviy ta'limning uyg'unligini namoyon etdi. Bu maktablar uchun mahalliy ziyolilar darslik va adabiyotlar ishlab chiqishdi. Tatar ziyolilari va ularning jamiyatlari Samarqanddagi yangi usul maktablarining ochilishida alohida ahamiyat kasb etdi. Yangi usul maktablarining ochilishi natijasida Samarqanddagi eski maktabdollar uchun katta raqobat maydoni shakllandi va ular ham asta-sekinlik bilan o'z maktablarini isloh qilishga kirishdilar.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. Рустам Шарипов. Туркистон жадидчилиқ ҳаракати тарихидан. Тошкент «ЎҚИТУВЧИ» 2002, 31бет.
2. Мехмет Сарой. Турк дунёсида маориф ислоҳоти ва Ғаспирали Исмоил. Анқара, 1987,49-бет.
3. Биография Абдулгани Хусайнова и история фирмы Хусайнова. Оренбург, 1913. 126 с.
4. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-ismoilbek-gasprinskiy-1851-1914/>
5. Ахророва З. Жадид педагогика асослари. (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2004. – Б. 12. <http://uz.denemetr.com>.
6. [//ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/abduqodir-shakuriy/](https://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/abduqodir-shakuriy/). Абдуқодир Шақурий (1875-1943).
7. Muhiddinov S. I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati maorifi holati va muammolari.: Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss... – Samarqand, 2019. – 132 b.
8. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz>. Ажзий (1864-1927).
9. <http://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/siddiqiy-ajziy>.
10. [//ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/saidrizo-alizoda/](https://ziyouz.uz/uzbek-ziyolilari/saidrizo-alizoda/). Саидризо Ализода (1887-1945).
11. Muhiddinov S. I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati maorifi holati va muammolari.: Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss... – Samarqand, 2019. – 140 b.

<sup>14</sup> Muhiddinov S. I. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati maorifi holati va muammolari.: Tarix fan. falsafa dok. (PhD) diss... – Samarqand, 2019. – 140 b.